ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BOBUR SHE'RIYATIDA AYOL QADDI-QOMATINI IFODA ETUVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Soatova Yulduz,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Bugungi kunda tilshunoslik muhim vazifalaridan biri sifatida badiiy asar tilini, ijodkorni individual badiiy nutqini ilmiy tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Muayyan ijodkorning tildan amaliy foydalanish qobilyatini ochish orqali tilning lisoniy imkoniyatlarini ilmiy baholash mumkinligi tadqiqotlarda o'z isbotini topib ulgurdi. Xususan, Bobur she'riyatini lisoniy tadqiq etish asrlar mobaynida shakllangan hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini baholashda muhim manba vazifasini bajaradi.

O'zbek tilshunosligida Bobur asarlari tilini lingvistik tadqiq qilishga doir Y.S.Saidova, D.F.Salimov[1] G.Muqimov[2], M.Amanov[3], M.Ahmedov[4]larning tadqiqotlarini ta'kidlash o'rinli. Mazkur tadqiqotlarda shoir lirik asarlarida antonomaziya hodisasining tizim sifatida o'rganilishi, fitonimlar misolida metafora tadqiqi, "Boburnoma" asaridagi arabcha izofaviy birliklar hamda qo'shma so'zlar lingvistik tahlil etishga doir ishlarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur tadqiqotarning davomi sifatida Bobur she'rlarida go'zallik ifodalovchi birliklarni tahlil etish muhim masalalardan biridir. Shoir oshiq va yor qad-qomatini ifodalashda o'ziga xos lingvistik vositalardan foydalangan.

Jadval. **Oshiq va yor tasvirida qo'llanilgan leksemalar**

T/R	Vositalar	Izohi	Mumtoz
1	**Egri**	Qiyshiq, qing'ir	Qiyshiq, bukik, qing'ir, egri
	Xam	Pastga egilgan, quyi solingan	Egilgan, bukilgan
3.	**Dol**	Arab alifbosida "d" harfining nomi (mumtoz adabiyotida egilgan qad-qomatga ishora sifatida qo'llanadi)	Arab alifbosidagi sakkizinchi harf
4.	**Sarv**	Janubiy mamlakatlarda o'sadigan, ignabargli doim yashil tik daraxt; ko'chma poet. "qaddi-qomati, basti kelishgan, xushqomat".	Tik o'sadigan xushqomat daraxt; qaddi-qomati kelishgan go'zal ma'shuqa
5	**Nihol**	Yosh novda yoki ko'chat; yangi unib chiqqan, ekin.	Yosh qomat, hayotning navironlik davri
6	**Shamshod**	Yog'ochi qattiq, doim yashil, tik o'sadigan janubiy daraxt yoki buta; Shamshod qomat (yoki qad) poet. Qaddi-qomat tik va kelishgan	Xushqomat va chiroyli daraxt
7	**Alif**	Arab alifbosidagi birinchi harf; qaddi-qomat kelishgan, xushqomat, sarvqomat	Arab alifbosidagi birinchi harf; *majoziy.* Tik qomat

[1] Саидов Ё.С Салимова Д.Ф. Бобур лирикасидаги антономазияларнинг семантик хусусиятлари // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б.46-49.

[2] Muqimov.G.R.Bobur she'riy asarlaridagi fitomorf metaforalarning semantik xususiyatlari // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б 64-66.

[3] Амонов М. У. Бобурнома»даги арабча изофий бирикмаларнинг морфологик шаклланиши // Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность: Сборник статей и тезисов докладов Международной научно- практической конференции.2020. – Б. 72.

[4] Ахмедова М. «Бобурнома» асарида қўшма сўзлар // Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность: Сборник статей и тезисов докладов Международной научно- практической конференции. 2020. – Б. 98.

8	**Shoxi**	Shox, daraxt shoxi, butoq	O‘simlik, daraxt yoki buta tanasidan yon-beriga o‘sib chiqqan o‘simta
9	**To‘bo (tubi)**		Jannat daraxti
10	**Ra’no**	Atirgullik oilasiga mansub ko‘p yillik osimlik va uning qizil sariq xushbo‘y guli; ko‘chma. “Go‘zal, barno ayol haqida”	-

Bobur she’riyatida *qomat* leksemasidagi ifoda semasi *egri, shamshod, to‘bo, nihol, alif (grafemasi), shoxi (daraxt), xam, “dol” (grfema), sarvi xiromon, ra’no* birliklari bilan birgalikda qo‘llanishi orqali anglashilgan.

Egri, xam leksemalarining sememalari uchun umumiy “egilgan, bukilgan” semasi orqali oshiq o‘zining ahvolini ifodalab kelgan.

*Furqatingda qolgon **egri** qomatim yod aylagil.*
Soz aylab bir nishotangez chang, ey dilrabo
(“Telba ko‘nglumkim, sening changingdadur, yod aylagil”)
*Ko‘nglumga dard kelgali **xam** bo‘ldi qomatim,*
*Qaddim magarki “dard” yonidag‘i **“dol”**dur*

Hijron va ayriliq tufayli oshiq holati ifodasida ham arab harflari muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, oshiqona g‘azallarda hijron ta’sirida oshiq qomatining egik holati “dol”(د) harfiga tashbeh qilinadi[1]. Mana bu misralarda keltirilgan “dol” (grafemasi) arab alifbosidagi sakkizinchi harf ma’nosida emas, balki “egilgan, bukilgan” sememasi anglashilgan. Oshiqning qomatiga o‘xshatish sifatida keltirish orqali, oshiqning o‘ziga bo‘lgan subyektiv bahoni ifodalagan.

Shamshod, to‘bo, nihol, alif (grafemasi), shoxi (daraxt), sarv birliklari yor qomatidagi go‘zallik ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Bobur devonida, sarv so‘zini to‘rt xil ma’noda:

1. Yor qomatining etaloni;
2. Metafora orqali yor tasviri;
3. Yorning xarakter-xususiyatini belgisi;
4. O‘simlik ma’nosida qo‘llanilgan.

Sarv mumtoz adabiyotda an’anaviy o‘xshatish sifatida *“yor qomat”* ining timsoli sifatida ko‘p qo‘llanishi *sarv* so‘zining poetik an’anaga aylanishiga asos bo‘lgan.

1. Sarv leksemasining yor qomatiga eteloni sifatida qo‘lanishi:

Yuzi – gul, zulfi – sunbul, qomati sarvi xiromondur.

Visoli lazzatidin ruh topmog‘liq erur dushvor

(“Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur” g‘azali)

Yuqoridagi misrada *sarv* so‘zi x*iromon* leksemasiga birikib “chiroyli yuruvchi” ma’nosida qo‘llangan.

2. Sarvning o‘z ma’nosida (o‘simlik) qo‘llanishi:

Sarv qadding borida o‘z qaddini chun qildi vasf,
O‘tqa yoqti bog‘bon sarvi sixisin sindurub.

(Mazmuni: *sarv qadding oldida o‘z qaddini vasf qilgani uchun bog‘bon uni sindirib o‘tga yoqdi)*

(“Eshikingga bosh urarmen telbalar yanglig‘ yurub” g‘azali)

Yuqoridagi misralarda *sarv* leksemasini o‘simlik ma’nosida qo‘llanilib yor qomatiga qiyos etilgan. Bu qiyos orqali sarv yor qomatining go‘zalligiga tenglasha olmasligi ta’kidlangan.

3. Metafora orqali yor tasviri

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog‘ining sarvi ravonidur.

(“Bahor ayyomidur, dog‘i yigitlikning avonidur”g‘azali)

Yuqoridagi misrada “sarv” va *“gul”* metafora orqali predmetlik ma’no emas, balki *yor ma’nosida qo‘llangan.*

4. Sarv yorning xarakter-xususiyatidagi “qaysarlik” semasini ifodalash uchun:

Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingg‘a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.

(“Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim”g‘azali)

Yuqoridagi baytda o‘xshatishda *sen (yor) – subyekt*, *sarv – timsol, vosita – dek, belgi – sarv* daraxtiga xos bo‘lgan xususiyat*: tiklik, egilmaslik.* Bu yerda *sarv* orqali ma’shuqa go‘zalligi emas, balki unga xos bo‘lgan sifat “sarkashlik (o‘jarlik)” xususiyatiga urg‘u berilgan. O‘xshatishdan maqsad esa *sarv* ma’shuqaning tashqi go‘zalligini emas, balki ma’naviy go‘zalligini ifodalash hisoblanadi.

Nihol *– yangi o‘tkazilgan, o‘stirilgan daraxt; qalamcha. 1. Yosh novda ko‘chat. Yangi unib chiqqan o‘simlik, ekin*[2]*.* Boburning quyidagi misralariga e’tibor qarataylik:

Og‘zi-yu ikki zulfu qadi bo‘lmasa manga,
Rayhonu sarvu g‘uncha ko‘rardin maloldur.
Ushshoq oxi yelidin osib topmasun

[1] Амонова З.Қ. Ахророва З.Р.Бобур ижоди ва китобат санъати // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б. 101-102.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: III жилд. 2007. – Б. 44.

Qaddingki, husn bog‘ida nozik niholdur.

(“Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur” g‘azali)

Misralarda *sarv* va *nihol* so‘zlar o‘z ma’nosi bilan “o‘simlik” lug‘aviy mavzuviy maydonga mansub bo‘lsa, ko‘chma manosi bilan “go‘zallik” leksik-semantik maydonga mansubdir. **Nihol** leksemasi o‘xshatish eteloni sifatida qo‘llanishi orqali “go‘zallik” tasviri yuzaga kelgan. Bu yerda yor qomati bo‘lmasa sarvni oshiq uchun ko‘rish qiyin ekanligini aytish bilan qomatining sarvdan ko‘ra go‘zalligi ma’nosini ta’kidlab kelingan. *Sarv* va *qomat* qiyosiy tasvirga olinib, bunda sarvga qiyoslash asosi sarv daraxtining *“tik”* sifatiga ega ekanligi bu bilan yor qomati o‘rtasidagi o‘xshashlik sabab bo‘lgan.

Yuqoridagi nihol so‘zining *“yosh novda”, “yangi o‘tkazilgan”* ma’nolari bilan yorning qomati *“mo‘rt”, “parvarishga muhtoj*” ekanligi o‘xshatish asosiga olingan. Bunda yor qomatining go‘zalligiga nisbatan subyektiv bahoni yanada kuchaytirish uchun *nihol* so‘zi oldidan *nozik* sifatini qo‘llashi va oshiqning “ohi shamolidan ziyon ko‘rib qolmaslik”ka chaqirishidan, yor qomati go‘zalligi uning nozikligi juda yuqori darajada ekanligini anglashimiz mumkin. Bunda Boburning sinonimlarni o‘z o‘rnida qo‘llash mahoratiga guvoh bo‘lamiz. *Nozik* leksemasida *ingichka, xipcha* sinonimlariga nisbatan uslubiy bo‘yoqdorlik kuchliroq. Nihol so‘zi uslubiy xoslanganligi, noziklik ma’nosi anglashilganligi uning adabiy tilda sinonimi bo‘lgan **“ko‘chat”** so‘zi bilan poetik nutqda farqlanishi, aynan bu she’riy matnda ko‘chat emas, nihol so‘zini qo‘llanishiga sabab bo‘ladi.

Bobur lirikasida qad-qomatni ifodalashda **shamshod** so‘zida quyidagi ma’nolarda qollanilgan:

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,

Necha qilursen jonima bedod?

(“Ey yuzi nasrin, qomati shamshod” g‘azali)

Oshiq o‘lgoch, ko‘rdum ul shamshod qaddin yuz balo,

Olloh-Olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish!

(“Oldi qo‘nglumni, sog‘indimkim, manga dildor emish” g‘azali)

O*‘xshatish belgisi – shamshod* daraxtidagi “*xushqomat”, “chiroyli*” sifatlariga ega ekanligi. Bu o‘xshatishdan maqsad yor qomatiga bo‘lgan oshiqning subyektiv bahosini berish. Bu matnda subyektiv baho ifodalashga yana bir vosita inversiya ham xizmat qilgan. **Qilarsan** so‘zining bu yerda poetik nutqqa xoslangan shakli *qilursen* inversiyaga olingan.

Ne ko‘ray to‘boni qaddi xushxiroming borida?!

Ne qilay sunbulni xatti mushkfoming borida?!

(“Ne ko‘ray to‘boni qaddi” g‘azali)

Yuqorida *qad* va *to‘bo* qiyoslash orqali majoziy emas balki, ilohiy go‘zallik tasvirini ko‘rishimiz mumkin**.** ***To‘b o(To‘biy)*** – jannatdagi rang-barang mevali va xushbo‘y sersoya daraxt. *Qad* – ko‘ngilning vahdat olamiga yuzlanishi, ilohiy mahbubaning o‘ziga jalb qilishi[1] ma’nolarda qo‘llanagan.

Bobur ilohiy va majoziy go‘zallikni ifodalashda grafemalardan samarali foydalangan. Grafemalar mumtoz adabiyotda kitobat san’atini yuzaga keltiradi. Z.Amonova va Z.Axrorovalarning “Bobur ijodi va kitobat san’ati” maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Z.M.Bobur o‘z lirik merosida bir qator badiiy san’atlar namunalaridan mahorat bilan foydalangan. Ana shulardan biri kitobat san’atidir. Arab alifbosidagi harflarning shakliy ko‘rinishlarini asos sifatida belgilaydigan badiiy san’at turi kitobatdir. Ta’kidlash joizki, arab harflarining botiniy ma’nolarini kashf qiluvchi va uning ichki ma’nolariga ishora qiluvchi hurufiylik tariqati ham mavjud .Mazkur tariqatda ham arab harflari alohida mavqe egallaydi. Hurufiylar inson yuzidagi a’zolarning shakliga mos holda harf tanlashgan. Jumladan, burun – *alif* (أ), tor va kichik og‘iz – mim(م),ko‘z – sod (ص), yoki ayn (ع), soch kokillar hamda zulf - dol(د), qosh– nun (ن), alif ustiga chizilgan maddadir. Ular yuzida, asosan, Olloh va Muhammad (s.a.v) so‘zlaridagi harflar ifodalanganligini e’tirof etadilar Yana shuningdek, insonning yaratilish shakli Muhammad ismining harflariga o‘xshashligi bilan bog‘liq fikrlar ham mavjud: “Insonning boshi “mim”; ikki qo‘li “ho”; qorni “mim”; ikki oyog‘i “dol” kabidir. So‘z aro shuni ta’kidlash joizki, na’t xarakterida yaratilgan she’rlarda “alif” – Hazrati payg‘ambarning bo‘yiga “lom” – sochiga, “mim” – og‘ziga o‘xshatilgan[2].

Sharq she’riyatida ma’shuqaning chiroyli qayrilma qoshi jon oluvchi qop-qora ko‘zlari, tor va kichkina og‘zi, oshiq ko‘ksiga o‘q bo‘lib qadaluvchi kipriklari, maftunkor holi azaldan an’anaviy uslubda madh etib kelingan. Bunda arab harflari ham o‘z o‘rni va mavqeiga ega. Hurufiylarning insonni ulug‘lab, uni ilohiylashtirishiga sabab ham ana shu Qur’oniy ilhomdir. Ushbu tariqatda yuzaga kelgan bunday o‘xshatishlar asta-sekinlik bilan lirikada o‘ziga xos bir san’atning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham ma’shuqaning *o‘y, soch, qosh, ko‘z, og‘iz* kabi go‘zallik unsurlari uchun arab alifbosidagi ayrim harflar tashbeh unsuri sifatida ishlatilgan. Jumladan *“alif”* yorning tik qomatiga , *“sod”* yorning ko‘zlariga, *“nun”* qoshlariga” o‘xshatilgan[3].

[1] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент. 1994. – Б. 42.

[2] Амонова З.Қ. Ахророва З.Р.Бобур ижоди ва китобат санъати // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б. 101-102.

[3] Амонова З.Қ. Ахророва З.Р. Бобур ижоди ва китобат санъати // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б. 101-102.

Bundan tashqari, Bobur ijodida*“ayn”, “yo”, “nun”, “qof”, “alif”* grafemalar ilohiy go‘zallikni tasviri uchun qo‘llanilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi baytda she’riy matnlarda majoziy go‘zallikka timsol sifatida *“alif”* harfini olinganligini ko‘ramiz.

Ul alif bo‘yluq oyning ishqi
Meni olam aro alam qildi.
(“Zuhd ketti esa, karam qildi” g‘azali,)

Boburning she’riy matnida yor go‘zalligi alif (ا) grafemasi vositasida yor qomatining tikligi tasvirlangan. *Alif* grafemasi o‘xshatish timsoli bo‘lib kelmoqda**,** o‘xshashlik asosi yor bo‘yi va alif o‘rtasida shakliy jihatdan o‘xshashlikdir. Yuqoridagi she’riy bayt haqida Z.Amonova va Z.Axrorova “Bobur ijodi va kitobat” san’ati” maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Alif bo‘yluq oyning (ma’shuqaning) ishqi” oshiqni olam aro “alam” (bayroq,mashhur) qiladi. Zero, oshiq mashhurligi sabab. “Alif bo‘yluq oyning ishqi”, shuningdek “alam” (mashhurlik) so‘zining o‘zi ham “alif” bilan yoziladi. Ko‘rinadiki Bobur Mirzo kitobat san’atidan shakliy o‘xshatish uchungina foydalanmaydi, balki shu harflar asosida bayt mazmuniga mos so‘z yasalishiga ham e’tibor qaratgan. Ayni mana shu jihat shoirning kitobat san’atidan foydalanishidagi o‘ziga xoslikni namoyon etadi[1]”

Bobur Mirzo lirik merosida fikr ta’sirchanligi ta’minlash maqsadida kitobat san’atidan unumli foydalanganligini ko‘rish mumkin. Shoir Sharq mumtoz adabiyoti an’analarining davomchisi sifatida arab harflarini shakliy ko‘rinishlarini inobatga olib chiroyli, ta’sirchan misralar yaratdi. Ayniqsa, ma’shuqa qomati ta’sirida “alif” harfi, ayriliq iztiroblari ta’sirida oshiq qomatining “dol” kabi bo‘lishi ifodalari bilan bog‘liq mulohazalarda o‘ziga xos novatorlikni ham namoyon etadi”[2].

Boburning quyidagi baytida “alif”, “yo” grafemalari qad va qoshga timsol sifatida olinganligi va yana bu grafemalar orqali yangi so‘z “oy” so‘zi yuzaga kelgan.

Qadding «alif»u qoshing erur yo»,
Desam ne ajab agar seni oy?
(“Yuz ko‘rsatib, o‘lturursen, ey oy” g‘azali)

Bunda “alif”, “yo” harflari *qad* va *qomat* go‘zalligini isboti bo‘lsa, ular orqali yuzaga kelgan *“oy”* leksemasi yorning o‘zining ham go‘zalligini yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qilgan. Bu grafemalar orqali mumtoz adabiyotda ***kitobat, istixroj*** badiiy san’atlarini yuzaga keltirgan.

*Qadi **shoxi** guldek nigorim qani?*
Labi g‘unchadek gul’uzorim qani?
(“Qadi shoxi guldek nigorim qani?” g‘azali)

Yuqoridagi misrada **“shoxi gul”** birikmasi yor qomatiga timsol sifatida qo‘llangan. “Go‘zallik” ma’nosi *qad, shox, gul, nigor, lab, g‘uncha, gul, uzorim* leksemalari orqali yuzaga kelgan. Bunda “gul” ikki xil o‘xshatishga timsol bo‘lib kelgan: *yorning qomatiga va uzoriga. Nigoro, uzor* so‘zlari o‘zining adabiy nutqiy sinonimlaridan ko‘ra “go‘zallik” ma’nosini anglatishi ustuvordir.

Rezyume: Ushbu maqolda Bobur she’riyatidagi ayol qaddi-qomati go‘zalligini ifodalovchi lisoniy birliklarning leksik-semantik jihatlari tahlilga tortilgan. Qaddi-qomat tasvirida foydalanilgan nihol, sarv, to‘bo, shamshod leksemalar hamda eski o‘zbek yozuvidagi ayrim grafemalarning go‘zallik tasviri vositasi sifatidagi roli ochib berilgan.

Resume: In this article, the lexical-semantic aspects of linguistic units expressing the beauty of female stature in Babur’s poetry are analyzed. The role of nihal, sarv, tobo, shamshod lexemes used in the image of stature and some graphemes in the old Uzbek script as a means of image of beauty is revealed.

Резюме: В статье анализируются лексико-семантические аспекты языковых единиц, выражающих красоту женского роста в поэзии Бабура. Выявлена роль лексем нихал, кипарис, тобо, шамшод, используемых в изображении роста и некоторых графем в староузбекской письменности как средства изображения красоты.

[1] Амонова З.Қ. Ахророва З.Р. Бобур ижоди ва китобат санъати // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б. 101-102.

[2] Амонова З.Қ. Ахророва З.Р. Бобур ижоди ва китобат санъати // Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш дунё талқинида халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 2021. – Б. 103.